

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi


1. Quyidagi qaysi materik hududini qutbiy doira chizig'i kesib o'tmagan?

- A) Janubiy Amerika B) Yevrosiyo  
C) Antarktida D) Shimoliy Amerika

2. Italiyada shahar aholisining ulushi qancha?

- A) 91 % B) 57 % C) 85 % D) 70 %

3. Rasmda "k" harfi bilan daryo vodiysining qaysi elementi ko'rsatilgan?



- A) estuariy B) irmoqlar  
C) suvayirg'ich D) daryo manbai

4. Sovetskoye platosi quyidagi qaysi geografik obyektga eng yaqin joylashgan?

- A) Shimoliy qutbga B) Verxoyansk tizmasiga  
C) Erebus vulqoniga D) Pantanal botqoqligiga

5. Quyidagi qaysi IES yiliga 13 mlrd kW · h elektr energiya beradi?

- A) Navoiy IES B) Sirdaryo IES C) Talimarjon IES D) Farg'ona IES

6. Mamlakatimizda shahar aholisining salmog'i 1989-yildagiga nisbatan 2019-yilda qanday o'zgardi?

- A) 10,5 % ga ko'paydi B) 9,5 % ga ko'paydi  
C) 9,5% ga kamaydi D) 10,5 % ga kamaydi

7. Quruqlikda tabiat zonalarining hosil bo'lishi quyidagilarning qaysi biriga bog'liq emas?

- A) Relyefga B) Havo haroratiga C) Albedoga D) Yog'in miqdoriga

8. Iqlim xaritalarida yog'in miqdori bir xil bo'lgan nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqlar nima deb ataladi?

- A) Izogiyetalar B) Izotaxalar C) Izobaralar D) Izogipslar

9. Tamaki-fermentatsiya zavodi respublikamizning qaysi viloyatida ishga tushirilgan?

- A) Navoiy B) Surxondaryo C) Toshkent D) Samarqand

10. Quyidagi qaysi tog' tizmasida balandlik mintaqalarining soni kamroq?

- A) Hindukush B) Tyanshan C) Bruks D) Kilimanjaro


2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

11. Quyidagi qaysi shaharlarda paxta tozalash hamda yog' sanoati uchun mashina va uskunalar ishlab chiqaruvchi zavodlar joylashgan?

- A) Toshkent, Qo'qon, Jizzax, Namangan B) Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz  
C) Toshkent, Farg'ona, Navoiy, Andijon D) Toshkent, Andijon, Samarqand, Kattaqo'rg'on


12. Quyidagi rasmda Mariana va Kermadek cho'kmalari qaysi raqamlar bilan ko'rsatilgan?





- A) 4 va 7      B) 3 va 6      C) 1 va 2      D) 4 va 6

13. 1986-yil Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan davlatlar rasmda qaysi raqamlar bilan ko'rsatilgan?



- A) 3 va 9      B) 1 va 4      C) 2 va 6      D) 7 va 8

14. Yevropadagi kichik rivojlangan mamlakatlar qaysi variantda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Belgiya, Avstriya, Shvetsiya      B) Lyuksemburg, Belgiya, Italiya  
C) Polsha, Norvegiya, Daniya      D) Shveysariya, Serbiya, Niderlandiya

15. Polineziya tarkibiga kirmaydigan orollar berilgan javobni belgilang.

- A) Santa Krus, Tuamotu      B) Taiti, Gavayi      C) Nauru, Bismark      D) Finiks, Pasxa

16. Havo haroratining yillik amplitudasi quyidagi qaysi yo'nalishda ortib boradi?

- A) Shimoldan janubga tomon      B) Ekvatordan qutblarga tomon  
C) Tog'larning cho'qqisidan etagiga tomon      D) Daryo manbaidan mansabiga tomon

17. Jeneva ko'li vujudga kelishiga ko'ra qanday ko'llar guruhiga mansub?

- A) Tektonik      B) To'g'onli      C) Morena      D) Laguna

18. Grenlandiya va Islandiya orollari orasidagi bo'g'iz nomini belgilang.

- A) Deyvis      B) Lankaster      C) Daniya      D) Mak-Klintek


19. Yarimorolda joylashgan davlatlar to'g'ri berilgan qatorni belgilang.

- 1) Yaponiya; 2) Norvegiya; 3) Ispaniya; 4) Shri-Lanka; 5) Vyetnam; 6) Koreya Respublikasi; 7) Islandiya; 8) Kuba; 9) Italiya.

- A) 2, 4, 6, 7, 9      B) 2, 3, 5, 6, 9      C) 1, 4, 5, 6, 8      D) 1, 3, 5, 7, 8

20. Qishda Murmansk portining muzlamasligiga sabab bo'luvchi oqimlar quyidagi xarita-sxemada qaysi sonlar bilan ko'rsatilgan?





- A) 9, 10, 12      B) 1, 2, 4      C) 16, 17, 19      D) 9, 8, 7

**3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi**

21. Quyidagi mamlakatlar orasidan mutlaq teokratik monarxiya tipiga kiruvchi davlatlarni ajrating.

1. Ummon; 2. Daniya; 3. Qatar; 4. Saudiya Arabistoni; 5. Belgiya; 6. Brunej; 7. Vatikan.

- A) 3 va 4      B) 4 va 7      C) 1 va 3      D) 5 va 6


22. Gvineya qo'ltig'i mamlakatlari orasida neft-gaz zaxiralarga eng boy davlat qaysi?

- A) Nigeriya      B) Gvineya      C) Togo      D) Gana

23. 10°–20° janubiy kengliklar oralig'ida joylashgan poytaxt shaharlarni aniqlang.

- A) Vindxuk, Jakarta, Lilongve, Kito, Singapur      B) Antananarivu, Lima, Lusaka, Braziliya, Xarare  
C) La-Pas, Asunson, Santyago, Maputu, Kigali      D) Luanda, Dili, Montevideo, Lusaka, Maseru

24. Ptolemey tuzgan "Dunyo xaritasi"da 5 va 6 raqamlari bilan qaysi daryolar ko'rsatilgan?




- A) Ra va Istr      B) Gang va Nil      C) Oks va Yaksart      D) Hind va Nil

25. Sulina shahri 45° shimoliy kenglik, 29° sharqiy uzoqlikda joylashgan. Shahardan Janubiy qutbgacha bo'lgan masofani kilometr hisobida aniqlang.


- A) 4 999,5      B) 14 998,5 km      C) 9 999 km      D) 1 914,5 km

26. Quyidagi rasmda nima tasvirlangan?



- A) Iliq front      B) Geotermik o'choq      C) Termik depressiya      D) Sovuq front

27. Rasmda ko'rsatilgan A nuqtaning mutlaq balandligi 400 m, u yerdagi havo bosimi 730 mm Hg. B nuqtadagi havo bosimini aniqlang.




- A) 610 mm Hg      B) 550 mm Hg      C) 600 mm Hg      D) 580 mm Hg

28. Hind okeani suvining o'rtacha sho'rliigi 36,5%. Okeandan olingan 4,5 tonna suvdan qancha tuz olish mumkin?

- A) 16,425 kg      B) 164,25 kg      C) 164 250 kg      D) 16,425 t

29. Terrigen yotqiziqlar ko'p to'planadigan joylar rasmda qaysi harf bilan belgilangan?



- A) D, A      B) F, B      C) G, F      D) J, B

30. Okeanlar va ularga tegishli dengizlar mos ravishda berilgan javobni aniqlang.

№	Okean nomi	Belgilanishi	Dengizlar nomi
1	Tinch okean	a	Skosh, Ueddell, Lazarev
2	Atlantika okeani	b	Chukotka, Bofort, Baffin
3	Hind okeani	c	Ross, Amundsen, Bellingsgauzen
4	Shimoliy Muz okeani	d	Hamdo'stlik, Kosmonavtlar, Riser-Larsen

- A) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d      B) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b      C) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d      D) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b



**O'quvchilar tayyorgarlik ko'rishlari uchun o'tgan yilgi savollar  
keltirilmoqda.**

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Fan olimpiadalari bo'yicha iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash departamenti tomonidan tuman bosqichi uchun nazorat materiallari shakllantirildi.

Telegram kanalimiga obuna bo'ling! 

<https://t.me/ustoz>

